

**AYOLLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKNING GENDER TENGLIK
BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI.****Mallaev N.R. -***TerDU dotsenti, yuridik fanlar nomzodi.***Abdurasulova S.S. -***TerDU tinglovchisi.*

Xotin - qizlarning tengligi insoniyatning tarixiy yutuqlaridan biridir. Ayollar millat genofondini shakllantiruvchi asosiy manbagina emas, balki iqtisodiyotda katta mehnat resursi hamda millat an'analarining davomchisidir.

Shuning uchun ham, BMT Nizomida erkaklar va ayollarning teng huquqliligi e'tirof etildi. Gender tenglikka erishish uchun dastlabki qilingan ishlar ayollarning yuridik va fuqarolik huquqlaridagi muammolarni yechish dunyo bo'ylab ayollarning ahvoli bo'yicha ma'lumotlar yig'ishga qaratildi. Vaqt shuni ko'rsatdiki, faqatgina qonunlar bilan teng huquqlilikni ta'minlashga erishib bo'lmagan ekan. Shundan keyin gender tengligi uchun kurashning ikkinchi bosqichi boshlandi.

Shu maqsadda ayollar ahvolini yaxshilash borasida reja va strategiyalarni ishlab chiqarish uchun BMT tashkilotining tashabbusi bilan to'rtta xalqaro konferensiya chaqirildi. Bu konferensiyalar BMT tomonidan jahon miqyosida tashkil qilingan bo'lib, butun dunyo e'tiborini gender tengligi muammosiga qaratishga muvaffaq bo'ldi. Konferensiyalar butun dunyo aholisini bir maqsad yo'lida birlashtirdi va rejalar tuzish yo'nalishlarini belgilash ayollarning jamiyatdagi va shaxsiy hayotidagi ahvollarini yaxshilash uchun asos bo'ldi".

Mexiko konferensiyasi. I Xalqaro konferensiya 1975 yilda Mexikoda boshlandi. Unda 1975 yil xalqaro miqyosda "Ayollar yili" deb e'lon qilindi va xalqaro jamiyatga yana bir bor ayollarga nisbatan munosabatda kamsitishga yo'l qo'yilayotganligi ko'p davlatlarda yechilmas muammo sifatida qolib kelayotgani eslatib o'tilib, konferensiya malaka almashish, munozara, kelishuv, maqsadlar qo'yish, mavjud ahvolni tahlil etish bilan boshlandi. BMT Bosh Assambleyasi Konferensiya ishtirokchilari oldiga quyidagi uch masalani qo'ydi:

Gender tenglikni ta'minlash va jinsga bog'liq belgilarda kamsitishni yo'qotish;

Ayollarni rivojlanish jarayoniga jalb qilish va ularning bu jarayondagi ishtirokini to'liq ta'minlash;

Ayollarning butun dunyo bo'yicha tinchlikni ta'minlashdagi hissasini oshirish. Yuqoridagi uch masala yuzasidan butun dunyoda amalga oshirilishi lozim bo'lgan faoliyatning asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan dastur qabul qilindi.

Ko'rsatilgan masalalarni hal etish uchun 10 yillik muddat belgilandi. Dastur ayollarni ta'lim olish, bandlik, siyosiy faoliyat, sog'liqni saqlash, uy-joy bilan ta'minlash, oziq-ovqat va oilani rejalashtirish sohalarida tenglikni ta'minlashga qaratilgan asosiy vazifalarni o'z ichiga olgan. Konferensiya ishtirokchilari boshqaruv organlarini milliy strategiyani ishlab chiqish va rivojlanish jarayonida ayollarning teng huquqli ishtirokini taminlashga qaratilgan maqsad va vazifalarni aniqlashga chaqirdilar. 10 yillikning oxirida BMT ning 127 ta a'zo-davlati mazkur yo'nalish bo'yicha milliy mexanizmi va institutlarini tashkil qilishganligi hamda u borada tegishli, tadqiqotlar o'tkazilayotganligi haqida ma'lumotlar berdi. Ayollar ahvolini yaxshilashga qaratilgan BMT Departamentiga Mexikodagi konferensiyada qo'shimcha qilib, Ayollar ahvolini yaxshilashga qaratilgan xalqaro tadqiqot instituti va BMT jamg'armasi tashkil qilindi. Mexikodagi uchrashuvning asosiy belgisi shu bo'ldiki, unda ayollarning o'zlari muhokamada ishtirok etdilar. Delegatlarning 133 nafaridan 113 nafari ayollar edi. Bu anjumanga parallel ravishda nodavlat tashkilotlarining forumi o'tkazildi va unda 4000 nafar atrofida vakillar qatnashdi.

Forumda ishtirok etgan ayollarning fikrlari xilma-xil bo'lib, ular o'z mintaqasidagi muammolardan kelib chiqqan edi. Masalan, Sharq ayollari o'z qiziqishlarini dunyoda tinchlik o'rnatishga qaratgan bo'lsalar, G'arb ayollari tenglikni saqlashga, rivojlanayotgan mamlakatlarning ayollari esa, o'z e'tiborlarini o'tish davri muammolariga qaratdilar. Forum turli davlatlarning ayol va erkaklarini yig'ib, ayollar harakatini birlashtirishga bevosita yordam berdi.

"1976 - yilda BMT ning xotin - qizlar rivojlanish jamg'armasi (UNIFEM) tashkil etildi. UNIFEM faoliyati xotin - qizlarning ahvolini yaxshilash, gender masalalari bo'yicha yangi dasturlarni moliyaviy va texnik jihatdan qo'llab quvvatlashga qaratilgan. Bugungi kunga kelib, 100 dan ziyod mamlakatlarda UNIFEM jamg'armalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. BMT ning UNIFEM jamg'armasi xotin - qizlarning huquqlari va ularni himoyalash borasida to'rtta strategik maqsadga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Ya'ni:

Ayollarni kambag'allik va qashshoqlikdan himoya qilish;

Ayollarga nisbatan tazyiq o'tkazishni yo'qotish;

Ayollar va qizlar o'rtasida VICH SPID infeksiyasi tarqalishini oldini olish;

Ayollarning demokratik boshqaruvdagi tenglik huquqini yaratib berish".

Kopengagen konferensiyasi 1980 - yilda II Xalqaro konferensiya sifatida o'z ishini boshladi. Unda 145 davlat vakillari ishtirok etdi va bu sohada rivojlanish mavjudligini e'tirof etishdi. Konferensiya qatnashchilari Mexikoda avval bo'lib o'tgan konferensiyada qo'yilgan maqsadlar amalga oshganining guvohi bo'lishdi.

Eng asosiy qilingan ishlardan biri 1979 - yilda Bosh Assambleya tomonidan "Xotin qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya" qabul qilinishi bo'ldi. Konvensiya "Ayollar huquqlari bilimi" nomini oldi va u hozirda BMT ning 165 a'zo - davlatlarini birlashtirgan. 1999 - yil 10 - dekabrda Konvensiyaga qo'shimcha protokol qabul qilindi va bu jinsiy kamsitishga yo'l qo'yilayotganligi yuzasidan xalqaro organga shikoyat bilan murojaat qilish imkonini berdi.

Qayd etish lozimki, 1995 yilda Pekinda chaqirilgan konferensiyada gender tengligi bo'yicha kurashning yangi sahifasi ochildi. 1995 yilda BMT ning Ayollar ahvoli bo'yicha IV Umumjahon konferensiyasida qabul qilingan Pekin Harakatlar platformasi alohida muhim o'rin tutadi. Konferensiya bir ovozdan Pekin deklaratsiya va Harakat platformasida 12 yo'nalishdagi alohida sohalarga ahamiyat berildi. Uning muqaddimasi va 12 bo'limi ayollar huquqlari bo'yicha ayollar ahvolini global darajada baholash va butun dunyoda ayollar huquqlarini amalga oshirish bo'yicha strategiyalar, siyosat va choralar tadqiq etilgan eng to'liq dastur hisoblanadi. Bu sohalarda hukumatlar va jamiyatlar tomonidan quyidagi maxsus me'yorlar qabul qilinishi kerakligi ta'kidlandi:

Ayollar va qashshoqlik;

Ta'lim va ayollarning kasbiy tayyorgarligi;

Ayollar va sog'liqni saqlash;

Ayollarga nisbatan zo'ravonliklar;

Qurolli mojarolar davrida ayollar;

Ayollar va iqtisod;

Ayollarning boshqaruv organlarida va qaror qabul qilishdagi ishtiroki;

Ayollar holatini yaxshilashda institutsional mexanizm;

Ayollar va inson huquqlari;

Ayollar va ommaviy axborot vositalari;

Ayollar va atrof — muhit, Qizlar.

Pekin konferensiyasi juda katta muvaffaqiyatga erishdi. Unda 189 davlatning 17000 delegati ishtirok etdi. Qilingan ishlarning tahlili Pekin Harakat platformasi qabul qilingandan keyin besh yildan so'ng, BMT Bosh Assambleyasining maxsus sessiyasida ko'rib chiqildi. Pekin platformasida ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash to'g'risida shunday normalar bor: "Ayollarga nisbatan o'tkazilgan har qanday zo'ravonlik - har qanday jinsiy belgiga asoslangan tazyiq o'tkazish, ayol salomatligiga jismoniy, jinsiy yoki ruhiy putur yetkazadigan, yoki unga azob - uqubat, iztiroblar chekishga olib keladigan, shuningdek, shaxsni yoki jamoa erkinligidan mahrum qilingan yoki mahkum etilgan harakatlarining sodir etilishi tushuniladi". Demak, ayollarga yetkaziladigan zo'ravonlik quyida keltirilgan hodisalarga muvofiq keladi, shu bilan birga, ular bilan cheklanib qolmaydi:

Oiladagi jismoniy, jinsiy va ruhiy zoʻravonliklar, jumladan, kaltaklash, sep bilan bogʻliq muammolar, er tomonidan xotiniga zulm oʻtkazilishi, ayollarga ziyon keltiradigan, ayollar jinsiy aʼzolarini mayib qiluvchi operatsiyalar va boshqa turdagi hayotiy amaliyotda kuzatiladiga anʼanaviy hodisalar, shuningdek, nikohdan tashqari boʻlgan zoʻravonlik va ayollarning nomus - nafsoniyatiga zoʻravonlik qilish bilan bogʻliq boʻlgan tazyiqlar;

Ayolga nisbatan qoʻllaniladigan jismoniy, jinsiy va ruhiy zoʻrliklar qaerda sodir etilayotganligidan qatʼi nazar, davlat tarafidanmi yoki davlatning layoqatsizligidanmi, baribir ayollarning kamsitilishiga kiradi (IV Ayollar ahvoli boʻyicha Jahon konferensiyasi Harakatlar dasturi, 113 - bandidan.

Oila - jamiyatning tayanchi hisoblanib, u fuqarolik jamiyatining asosiy negizi, barqaror va tinch tuzilmasi sanaladi.

Bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u maʼnaviy va axloqiy tarbiya topish bilan birga hayotga ijtimoiylashish jarayonini ilk qadamini shu maskanda topadi. Oila insonlarning tarbiyaviy, iqtisodiy, huquqiy, maʼnaviy, axloqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birligi boʻlib, u qanchalik mustahkam va mukammal boʻlsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam boʻladi va oʻ zidan yetuk mukammal avlod tarbiya qiladi.

Jamiyat asosi - oilalarning moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanib borishi muhim ahamiyatga ega. Bundan koʻrinib turibdiki, jamiyat va oilani barqarorligida gender tarbiyani amalga oshirishda oilada barqaror ijtimoiy hayotni taʼminlashdagi ayol va erkakning roliga eʼtibor qaratish lozimdir. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida"gi OʻRQ-562-son Qonunida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni taʼminlash, sohasidagi munosabatlarni tartibga solish belgilab qoʻyildi. Qonunda "Gender" tushunchasiga taʼrif berilib, gender - xotin-qizlar va erkaklar oʻrtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida namoyon boʻladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi deyilgan. Hozirgi kunda sir emas gender tengligi masalasi juda dolzarb mavzulardan biri boʻlib bormoqda. Aslida "Gender" tushunchasining lugʻaviy maʼnosi lotincha "genus", yaʼni "jins" maʼnosini anglatib, jamiyatda har ikki jins vakillari oʻzlarining shaxsiy fazilatlarini namoyon qilish uchun teng, bir xil sharoit va imkoniyatlarning mavjudligini anglatadi. Biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajrasa, gender esa - ayol va erkaklarning jamiyatdagi statusini ajratishga qaratilgan? Jamiyatda ayol va erkaklarning oʻz oʻrnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga davlat tashkilotlarida faoliyat olib borishlari uchun bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni taʼminlashda asos boʻlib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash, ularning erkinligi, huquqi, manfaatlari va sogʻligini muhofaza qilish mamlakat siyosatining ustuvor yoʻnalishlari qatoridan joy olgan. Albatta, gender gʻoyasiga koʻra dunyoda ayol muammosi - inson muammosi, inson huquqi - ayol huquqidir. Ayollar masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan uzviy aloqada boʻlishini koʻrsatib beradi. Biz ayol huquqlariga doir islom huquqidagi nazariy muammolarni tahlil qilar ekanmiz, islom huquqidagi ayol huquqlariga yondashuvda oʻziga xos jihatlar mavjudligini taʼkidlamaslikning iloji yoʻq. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu toʻgʻrida shunday soʻzlar yozilgan: "Oʻzbekiston Respublikasi demokratiya, umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi, ularga koʻra inson, uning hayoti, erkinligi, shaʼni, qadr-qimmati va boshqa dax Isiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi". Qadriyatlar amal qilish doirasiga koʻra, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga boʻlinadi. Insonning qaysi millatiga mansub ekanligi xaqida tasavvuri faqat gʻoyagina emas, balki tuygʻu hamdir. Insonda milliy ong va gʻurur boʻlmasa, u oʻzining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarini anglashini tasavvur qilish qiyin.

Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam maʼrifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini bir soʻz bilan aytganda, oʻzligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida oʻziga munosib obroʻli oʻrin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Shu bilan birga, hozirgi zamonda yangi qadriyatlar tizimlarini ham oʻzimizga qabul qilyapmiz. Buning yorqin misolini oilada gender

tenglik tamoyillarini oʻrnatish va oilaviy-maishiy zoʻravonlikning oldini olishda koʻrish mumkin? Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda inson huquqlarini taʼminlash borasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Inson huquqlarini taʼminlash borasida olib borilayotgan siyosat, eng avvallo konstitutsiyamizning 18- va 46-moddalarida oʻz ifodasini topdi, barcha kodekslarda va qonunlarda jinslar tengligiga va uni taʼminlashga alohida urgʻu berildi. Gender muammolarini hal etishning eng ogʻriqli tomoni ham oilaviy munosabatlar sohasiga tegishlidir. Chunki oila individ hayotining gender tenglik prinsipi toʻliq qamrab olmaydigan, qatʼiy ravishda oʻratilgan nisbiy ierarxik tizimli (ota-onalar va farzandlar, aka-ukalar, opa-singillar oʻrtasidagi munosabatlar) munosabatlari doirasini oʻz ichiga oladi. Odatda, bunday munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlariga qaraganda qarindoshlik aloqalari bilan uzviy bogʻlangan boʻlib, uning zamirida ruhiemotsional yaqinlik, doimiy va barqaror boʻlgan oʻzaro ishonch, oʻta udbinona qarashlar doirasidan chetga chiqib ketuvchi samimiy va umumiy manfaatlarni anglash yotadi.

Shuning uchun ham oilaviy munosabatlar doirasida gender munosabatlarni joriy etishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Shu bilan bir qatorda anʼanaviy jamiyatlarda vaziyat biroz boshqacharoq. Bunday jamiyatlarda oila, hozircha, sezilarli darajadagi global sotsiomadaniy oʻzgarishlarga duchor boʻlgani yoʻq. Ammo gender aqidasi, xuddi Gʻarbdagi oila atrofida yuzaga kelgan muammolarga olib keluvchi oʻzgarishlar uchun darvoza vazifasini oʻtashi mumkin.

Ayollarga nisbatan tazyiq va zoʻravonlik masalasi zamonaviy jamiyatning eng dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo faqat alohida shaxs yoki oila doirasida emas, balki butun jamiyat taraqqiyoti, inson huquqlari taʼminoti va ijtimoiy adolat mezonlari bilan bevosita bogʻliqdir. Shu sababli ayollarga nisbatan zoʻravonlikka qarshi kurashish va gender tenglikni taʼminlash oʻzaro chambarchas va ajralmas jarayon sifatida namoyon boʻladi.

Tarixiy rivojlanish jarayoni shuni koʻrsatadiki, uzoq davrlar davomida ayollarning jamiyatdagi oʻrni cheklangan, ularning huquq va imkoniyatlari tor doirada talqin qilingan. Keyingi davrlarda inson huquqlari konsepsiyasining rivojlanishi, demokratik qadriyatlarining mustahkamlanishi natijasida ayollarning teng huquqliligi gʻoyasi xalqaro darajada tan olindi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qabul qilingan koʻplab hujjatlar ayollar huquqlarini himoya qilish, kamsitish va zoʻravonlikning oldini olishda muhim huquqiy asos boʻlib xizmat qildi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, gender tengsizligi mavjud boʻlgan muhitda zoʻravonlik xavfi yuqori boʻladi. Chunki ijtimoiy stereotiplar, iqtisodiy qaramlik, huquqiy savodxonlikning pastligi va patriarxal qarashlar ayollarga nisbatan tazyiqni “odatiy hol” sifatida qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Gender tenglikni taʼminlash esa aksincha — resurslar, imkoniyatlar va qaror qabul qilish jarayonida teng ishtirokni kuchaytirib, zoʻravonlik omillarini kamaytiradi.

Ayollarga nisbatan zoʻravonlikning oldini olish faqat jazolash choralarini kuchaytirish bilangina cheklanmasligi lozim.

Bu borada kompleks yondashuv zarur, yaʼni:

huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash, himoya va rehabilitatsiya tizimini rivojlantirish, aholining huquqiy va gender savodxonligini oshirish, taʼlim tizimida tenglik va oʻzaro hurmat qadriyatlarini singdirish, oilada sogʻlom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilalarning jamiyatning asosiy boʻgʻini sifatida gender munosabatlar shakllanadigan birlamchi makondir. Oilada oʻzaro hurmat, masʼuliyat va tenglik tamoyillariga asoslangan munosabatlar qaror topsa, bu kelajak avlod ongida ham zoʻravonlikni rad etuvchi, tenglikni qoʻllab-quvvatlovchi qarashlarni shakllantiradi. Shu bois gender tarbiya masalasi oilaviy va ijtimoiy siyosatning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlishi zarur.

Oʻzbekiston tajribasi shuni koʻrsatadiki, soʻnggi yillarda gender tenglikni taʼminlash va xotin-qizlarni zoʻravonlikdan himoya qilish borasida muhim huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Maxsus qonunlar, strategiyalar, gender ekspertizasi mexanizmlarining joriy etilishi bu yoʻnalishda tizimli yondashuv shakllanayotganini bildiradi. Endilikda ushbu normalarning amaliy samaradorligini oshirish, ularni joylarda toʻliq ishlashini taʼminlash asosiy vazifa boʻlib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, gender tenglikni ta'minlash — bu faqat ayollar manfaatini himoya qilish emas, balki jamiyatning barqaror rivoji, inson qadr-qimmatini ulug'lash va ijtimoiy adolatni qaror toptirish demakdir. Ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni kamaytirish esa aynan tenglik, hurmat va imkoniyatlar muvozanatini yaratish orqali eng samarali natija beradi. Gender tenglik qaror topgan jamiyatda zo'ravonlikka o'rin qolmaydi, chunki bunday jamiyatning poydevori — teng huquq, o'zaro hurmat va mas'uliyatga asoslanadi.

АДАБИЁТЛАР:

1. Муминов А.Г Янги Ўзбекистонда гендер тенгликни таъминлашнинг устувор йўналишлари. “Мақон ва замон” журнали 2024. №1, 12-15 бетлар.

REZYUME:

Ushbu maqolada ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning gender tenglik bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Tarixiy rivojlanish jarayoni, xalqaro standartlar va Ўzbekiston tajribasi orqali gender tenglikni ta'minlash va zo'ravonlikning oldini olish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: gender tengli, ayollarga nisbatan zo'ravonlik, tazyiq va diskriminatsiya, xotin-qizlar huquqlari, oilaviy munosabatlar

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируется взаимосвязь между насилием в отношении женщин и гендерным равенством. Вопросы обеспечения гендерного равенства и предотвращения насилия освещаются на фоне исторического развития, международных стандартов и опыта Узбекистана.

Ключевые слова: гендерное равенство, насилие в отношении женщин, угнетение и дискриминация, права женщин, семейные отношения.

RESUME:

This article analyzes the relationship between oppression and violence against women and gender equality. The issues of ensuring gender equality and preventing violence are highlighted through the historical development process, international standards and the experience of Uzbekistan.

Keywords: gender equality, violence against women, oppression and discrimination, women's rights, family relations